



TEMURIYLAR DAVRI BADIY KULOLCHILIK SAN'ATI

Safarova Saodat Tursunbayevna

TerDU badiiy grafika va dizayn kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqollada Temuriylar davri (XIV-XV asrlar) Markaziy Osiyo tarixida alohida o'rin tutgan davrdir. Bu davrda madaniyat, ilm-fan va san'at sohalarida katta yutuqlar qo'lga kiritildi. Temuriylar davrida badiiy kulolchilik san'ati ham yuksak darajada rivojlangan. Temuriylar davrida badiiy kulolchilik san'ati yuqori darajada rivojlangan bo'lib, bu davrning san'at va madaniyat sohasidagi yutuqlaridan biri hisoblanadi. Ushbu davrda yaratilgan kulolchilik asarlari hozirgi kungacha o'zining nafisligi va san'at qiyamati bilan qimmatli hisoblanadi.

Kalit so'z: Temuriylar davri, badiiy kulolchilik, san'at, Samarqand, buxoro, sirlanish texnikasi, naqsh va bezaklar, vazalar, idishlar, mozaika uslubi, zargarlik, geometrik naqshlar, o'simlik motivlari, arabeska, ko'zalar, kulolchilik markazlari, madaniyat, ilm-fan, temuriylar.

Kirish

Buyuk Temuriylar davrining o'ziga xosligi. Shaharlardagi yangi rivojlanish davri XIV asr ikkinchi yarmidan rivojlanib, XIV asr oxiri va XV asr Amir Temur va temuriylar davri, san'at va hunarmandchilik jumladan sirlangan kulolchilik eng gullagan, cho'qqisiga chiqqan davridir. Amir Temurni markazlashtirilgan davlat qurish siyosati, xalqni madaniyatini uyg'otdi. Amir Temur davlatining tinchligi hunarmandchilikning rivojlanishiga sabab bo'ldi va tarixiy shaharlarning rivojlanishiga olib keldi. Bu joylarda uy-ro'zg'or buyumlari sotilardi: ayollarnig bezaklari, zardo'zlik buyumlari, butun dunyoga mashhur mineral toshlar, har xil turdagi qog'ozlar, xarbiy anjom va kiyimlar va boshqa narsalar.

Amir Temur o'z atrofiga barcha san'atning jabhalarini yig'gan. Bu davrda nafaqat kulolchilik, gilamchilik, to'quvchilik, yog'och va tosh o'ymakorlik, gullab yashnagan. Katta shaharlar badiiy misgarlik, shishasozlik, suyakdan, mramor, yog'och buyumlari bilan mashhurlikka erishdi. Keng mashhurlik bilan ipak, paxta, jun matolari ishlatildi⁹.

Kulolchilikda charx san'ati qaytadan tiklandi. Ular uy-ro'zg'or va me'moriy obidalarda o'z aksini ko'rsatdi. Kulol ustalar me'moriy obidalar uchun mo'ljallangan arxitektura sirlangan plitalar, o'yilgan terrakotalar, naqshli mayolika va mozaikali sirlangan plitalar o'ziga hos badiiy jilo beruvchi keramika mahsulotlarini ishlab chiqardilar. Rangli sirlangan mayolika va mozaikali plitalar me'moriy obidalar gumbazlarini bezatib turishi o'ziga hos kulolchilik san'atida davr yangiligi bo'ldi. Me'moriy obidalar inter'eri va fasadida ishlatilgan yuqori texnologik mahorat bilan ishlangan kulolchilik badiiy naqshlari ko'rk beradi. O'rta Osiyo va Eronda bunday me'moriy yodgorliklar xali hanuz hozirgi kunda ham saqlanib qolgan.

Shuningdek, Amir Temur davlatining iqtisodiy hayotining qayta tiklanishi va rivojlanishida amaliy san'at katta o'rin tutdi. Imperiyaning poytaxti va katta shaharlarida O'rta va Yaqin Sharq hududlaridan

yuqori malakali ustalarni yig'a boshladi. Malakali ustalar tajriba almashishi sababli amaliy san'atda, shu jumladan kulolchilikda yangi uslublar paydo bo'la boshladi.

Shaharlarda kulol ustalari, tilla, bronza va kumushdan idish tovoq yasaydigan ustalar, bejirim zargarlik buyumlari, to'quvchilar tomonidan ishlab chiqarish yaxshi rivojlangan.



Katta hajmdagi shahar qurilishi va me'moriy obidalar qurilishiga

⁹*D.B.Tashxodjayeva „Materialshunoslik „Oo`quv qo`llanma „San`at„, jurnali nashriyoti Toshkent - 2017*

hunarmanchilikning barcha jabhalari jalb etildi: kulol ustalar, yog'och va tosh o'ymakorlari, ganch o'ymakorlari badiiy bezaklar ustida ishlaydi. O'rta Osiyodagi san'at va madaniyat markazlashgan katta shaharlar Samarqand, Shaxrisabz, Buxoro, Toshkent, Axsikent, Shoxruxiya, Termez, Merv, Xiva, Meshxedlar yahshi rivojlangan. Bu shaxarlar faqat O'rta Osiyo markazlardan tashqari dunyo mamlakatlari, shular jumladan: Xitoy, Xindiston, Arab mamlakatlari bilan yaqin aloqada bo'lgan. 1991 yilda e'lon qilingan Mustaqillik O'zbekiston tarixida yangi sahifa ochdi. Qisqa tarixiy davr ichida mamlakatimizda davlat va jamiyat qurilishining mutlaqo yangi siyosiy asoslari yaratilishi bilan birgalikda ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy sohalar rivojlanishining ustivor yo'nalishlari belgilab berildi.

Demak, san'at asarlari – ma'naviyat manbai ekan, ulardan xalqimizning ma'naviyati va madaniyatini ko'tarishda samarali foydalanish bugunning dolzarb vazifasidir.

XIX asrda O'rta Osiyoda tojik va o'zbek xalqlari o'rtasida kulolchilik juda keng rivojlanib, G'ijduvon, Panjikent, Samarqand, Shahrisabz, Toshkent, Rishtonda kulolchilik markazlari paydo bo'ldi. Ular badiiy kulol namunalarini sirlab bezatishning o'ziga xos uslublarini vujudga keltirdilar. 1930 yilda Toshkentda eksperimental keramika va Samarqandda keramika ustaxonalari ochildi. 1932 yilda Toshkent o'quv ishlab – chiqarish ustaxonasi tashkil etilib, u maxalliy xalq amaliy san'at ustalari, shu katori kulollar tayyorlaydigan kurslar tashkil etildi. 1943 yili Shahrisabzda o'quv ishlab–chiqarish badiiy korxonasi shu tushirildi.

Kulolchilik sir-asrorlarini mashhur kulollar yoshlarga sitqidildan o'rgatdilar. Hozirgi kunda kulolchilik san'atiga yanada e'tibor kuchaymoqda.

XX asr kulolchilik markazlarining o'ziga xosligi. O'zbekiston kulolchilik san'atining eng boy merosini saqlab qolgan maskan hisoblanadi, chunki zamonaviy an'anaviy va noan'anaviy kulolchilik san'ati (XIX asrda tarixan shakllangan) vakillarida mahalliy madaniyatning tarixiy qatlamlariga qiziqishlari kuzatilmoqda.

XX asrdan hozirgi O'zbekiston hududlarida asosiy maktablar va markazlar tashkil

a) Samarqand-Buxoro maktabi, Toshkent, Samarqand, Urgut, Buxoro, G'ijduvon, Shahrisabz, Kitob, Kattako'rg'on, Denov markazlari bilan;

b) Farg'ona maktabi Rishton va G'urumsaroy markazlari bilan;

v) Xorazm maktabi Xonqa, Modir qishlog'i, Kattabog', Chimboy markazlari bilan.

Har bir markaz o'ziga xos mahalliy xususiyatlarini saqlagan. Ularda hozirgi vaqtda sopol idishlarning yassi (kosalar, laganlar), baland, ya'ni yuqoriga qarab yo'naltirilgan (ko'zalar, xumlar) turlari va uy-ro'zg'or buyumlar ishlab chiqarilmoqda.



Farg'ona va Xorazm kulolchiligida an'anaviy moviy rangdagi ishqorli sir tayyorlash yo'lga qo'yilgan, ammo ular o'ziga xos bezak-naqshlari va buyumlarning xilma-xilligi bilan ajralib turadi (namoyandalari M.Turopov (G'urumsaroy), I.Komilov (Rishton), R.Matchonov (Xorazm) va b.Buxoro-Samarqand sopol buyumlari jarangdor nafis bo'lib chiqishida qo'rg'oshinli sir va sarg'ish-yashil, jigarrang bo'yoqlar muhim o'rin egallaydi (namoyondalari Alisher va Abdulla Narzullayevlar (G'ijduvon), Namoz va No'mon Obloqulovlar (Urgut), X.Haqberdiyev (Samarqand). Qashqadaryo (Kasbi) kulolchiligida hozirgi kunda faqat sirlanmagan buyumlar ishlab chiqarilmoqda. Naqshlarning o'ziga xosligi. Kulolchilik san'atida qo'llaniladigan naqshlar asosan X-XI asrlarda O'rta Osiyoda qaror topgan islom dini ta'sirida (VIII asr) shakllanib, xalq ustalarining ko'p qirrali badiiy iste'dodini namoyon qilib keldi. Ma'lumki, musulmon mamlakatlari madaniyati an'analarga qat'iy rioya qilishga, an'analarni muntazam takomillashtirish maqsadiga asoslangan qonun-qoidaga muvofiq kelishga asoslanuvchi badiiy ijod tilini tashkil etadi. bu nuqtai nazardan, “badiiy kulolchilik maktablari murakkab badiiy tizim sifatida rivojlanishi, hamda an'analarni o'zlashtirish jarayoni turli formatsiyalar o'zgarishi bilan bog'liq qonun-qoidalarga asoslanganligini belgilaydi”. Qonun-qoida tizim sifatida o'z ichiga har bir kulolchilik maktabi tajribasini mustahkamlaydigan regional, mahalliy xususiyatlarni qamrab, aholi etnik tarkibi, joylanishi va tarixiylik tamoyillari bilan bevosita bog'liqdir. Har bir naqsh ma'lum qonuniyatlar asosida tuziladi va chiziladi. Naqshlarning o'ziga xos nomlari va ma'nosi bo'ladi. Har bir naqsh va uning elementini azaldan ota-bobolarimiz biror narsa va voqeylikning ramzi tariqasida tasvirlab kelganlar. Masalan – risq gulini osoyishtalik va umr uzoqlik, jingalak naqshlar esa to'kin – sochinlik, boylik, hokazo.



Masalan, “guli bodom” naqshini olaylik. U bodomning ma'lum masofada ritmik takrorlanishdan hosil bo'ladi. Ya'ni naqshning asosini bodom tashkil etadi. Shuning uchun ustalar bu naqshni “guli bodom” deb ataydilar. An'anaviy shakllar va naqshlarni izchillik bilan to'lakonli qilib qayta tiklash, an'analarga so'zsiz rioya qilish o'rnini yakka tartibdagi ijodiy tashabbuskorlik, yangicha usul va naqshin bezaklar turlarini kengaytirish egallab bormoqda. Garih—forscha, chigal, tugun degan ma'noni beradi. Xandasiy naqsh-to'rtburchak, uchburchak va boshqa elementlardan tashkil topgan geometrik murakkab naqsh. Garih to'g'ri, egri va aralash chiziqlarga bo'ysundirilgan bo'lib, o'ziga xos shartlilikka

ega. Bu naqsh turining keng tarqalishi bezak san'atining rivojlanishiga yangidan yangi imkoniyatlar ochib berdi.

References:

1. X.X.Muratov.R.R.Jabborov. "Amaliy va Badiiy bezak san`ati" fanidan o`quv qo`llanma. Chirchiq.- 2020.
2. O`rinov A. Ashyolar kompozitsiyasi,,Kasb-hunar kollejlari uchun o`quv qo`llanma. Toshkent, "Niso poligraf" 2017
3. D.Saidova. Badiiy kulolchilik san`at tarixi Kamoliddin Behzod nomidagi milliy rassomchilik va dizayn institute.O`quv qo`llanma .Toshkent. 2021.
4. Tursunbayevna S. S. THE SUBJECT" FUNDS OF COLOR AND COMPOSITION" IS ONE OF THE IMPORTANT THINGS OF FINE ART EDUCATION //American Journal of Pedagogical and Educational Research. – 2024. – T. 21.
5. Tursunbayevna S. S. THE SUBJECT" FUNDS OF COLOR AND COMPOSITION" IS ONE OF THE IMPORTANT THINGS OF FINE ART EDUCATION //American Journal of Pedagogical and Educational Research. – 2024. – T. 21.
6. Tursunbaevna S. S. METHODOLOGY OF WORKING GYPSUM CUTTING HEAD SAMPLE //International Multidisciplinary Journal for Research & Development. – 2024. – T. 11. – №. 01.